

**O‘ZBEKISTON PENSIYA TIZIMI FAOLIYATI: DAROMADLARI VA HARAJATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI****Turaboyeva Feruza***talaba, Farg‘ona davlat universiteti*

**Annontatsiya:** *Ushbu maqolada O‘zbekiston pensiya tizimi faoliyati hamda daromadlari va harajatlari tizimini takomillashtirish masalalari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Pensiya, faoliyat, tizim, rivojlanish, ko‘rsatkich, mehnat, madaniyat, resurs, mamlakat, fuqaro.*

Aholining turmush darajasi va farovonligi ko‘rsatkichlari uning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlar bilan ta‘minlanganlik xolati hamda kishilar ehtiyojining bu ne‘matlar bilan qondirilishi darajasi orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko‘rsatkichlari tizimi o‘z ichiga quyidagi guruhlarini oladi: tug‘ilish va o‘lish darajasi hamda boshqa demografik ko‘rsatkichlar; hayot kechirishning sanitargigiena jihatidan sharoitlari; oziq-ovqat tovarlarini iste‘mol qilish darajasi; turar joy sharoitlari; ma‘lumot va madaniyat; mehnat qilish va bandlik sharoitlari; aholining daromadlari va xarajatlari; hayot kechirish qiymati va iste‘mol narxlari; transport vositalari; dam olishni tashkil etish; ijtimoiy ta‘minot. Amaldagi ijtimoiy ta‘minot tizimini boshqarishning o‘ta markazlashtirilganligi, jamg‘arma shakllanishida ta‘minotning alohida shakllarini ajratish va avtonom tizimda ta‘minlashni istisno qiluvchi "umumiy qozon" xarakteri bugungi kunda taqsimlash munosabatlarini desentralizatsiyalash jarayoni bilan chuqur qarama-qarshilikka duch keldi.

Pensiya ta‘minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi, davlatning pensiyaga oid majburiyatlarni bajarishi uchun moliyaviy resurslarning etishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib mamlakatlar (uzoq muddatli istiqbolda) pensiya tizimi barqarorligini yaxshilashga yo‘naltirilgan o‘ziga xos siyosat olib boradilar.

Pensiya ta‘minoti tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi:

- fuqarolarni keksayganda qashshoqlikdan himoyalash;
- mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to‘lanadigan ish haqiga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta‘minlash;
- kelajakda pensiya tizimi orqali fuqaroni turmush darajasini yaxshilashdan iborat.

Bizning respublikamizda ijtimoiy siyosatning muhim ahamiyatga ega ekanligi faqatgina iqtisodiy va siyosiy vaziyatlargagina bog‘liq emas. Balki, xalqning ma‘naviy qoidalariga asoslangan sog‘lom avlodni tarbiyalash, ko‘p bolali oilalarga madad berish, qariyalarga g‘amxo‘rlik qilishdan iboratdir. Qolaversa, bu aholining kam ta‘minlangan va kam himoyalangan qismi bolalarga, ayollarga, qariyalarga, nogironlarga ijtimoiy yordam berish va ularning turmush sharoitini yaxshilash hamda bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tishda fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga bo‘lgan ishonchini yanada kuchaytirishga

yordam beradi. Shu bois o‘ta muhim ijtimoiy muammolarni hal etishda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari rolini bundan buyon ham butun choralar bilan amalga oshirish, ularni zurr moddiy vositalar bilan ishonchli darajada mustahkamlash lozim. Davlat ushbu o‘ta muhim ijtimoiy masalani hal etishda fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlariga chora-tadbirlar bilan ko‘maklashishi lozim.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga asosan, kambag‘allik va aholi o‘rtasida kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash maqsadida daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bo‘yicha davlat chora-tadbirlari tizimi ijtimoiy siyosat deb yuritiladi. Keng ma‘noda - ijtimoiy siyosat deganda shaxsning hayot faoliyatini shunday sharoitlarini yaratish va tutib turish bo‘yicha ko‘rilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi. U o‘z navbatida shaxsning rivojlanishiga yordam beradi va uning ijodiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishini rag‘batlantiradi.

Ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, ishonchli ijtimoiy kafolatlarni yaratish, mehnatning manfaatli bo‘lishini kuchaytirish islohotlarni o‘tkazish uchun mustahkam ijtimoiy tayanch bo‘ladi, ular muqarrarligining garovi bo‘lib xizmat qiladi.

«Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlari va normalari to‘g‘risida»gi XMT 117 - Konvensiyasining 25- moddasiga muvofiq, odam o‘zining va oilasining sihat salomatligini hamda farovon turmushini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga, shu jumladan, oziq ovqat, kiyim, uy joy, tibbiy yordam va ijtimoiy xizmatga ega bo‘lish huquqiga, shuningdek, ishsizlik, nogironlik yoki o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra tirikchilik vositalarini yo‘qotgan boshqa hollarda ta‘minot olish huquqiga egadir.

Milliy pensiya ta‘minot tizimlarini tashkil etishdagi xilmaxillik bir qator sabablari bilan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy rivojlanish darajasi, ularning geografik joylashish xususiyatlari, davlat qurilishi shakli, madaniy va tarixiy an‘analari, rivojlangan fukarolik jamiyatining mavjudligi va shu kabilar bilan izohlanadi. Bunda milliy ijtimoiy ta‘minot tizimlarining evolyusiyasi jarayonida ularning xilma-xil shakllari birbirini to‘ldirib keldi, shu munosabat bilan muhofazaning xususiy, jamoa-guruhiiy va davlat shakllarining xilma-xil kombinasiyasi hosil bo‘lib, u ijtimoiy ta‘minot modelini tashkil etdi. Muhofaza modullarining asosiy xususiyatlarini belgilab beruvchi eng muhim «omil» mablag‘larni ijtimoiy ta‘minot maqsadlariga qayta taqsimlash mexanizmlaridan iborat bo‘lib, bu maqsadlar o‘z navbatida ishchi kuchini takror ishlab chiqarish mexanizmlariga bog‘liqdir.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlariga asosan, ish haqi, stipendiya, nogironlarga beriladigan nafaqa, mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa, oilaga beriladigan nafaqalar, moddiy yordam, pensiyaning barcha turlarini oshirish, ularni amaldagi qonunchilikka asoslanib qayta hisoblash ko‘zda tutiladi. To‘g‘ri, aholi turmush tarzini tubdan o‘zgartirish, uni uzluksiz farovonlashtirish, asosan, tovar massasining pul massasiga nisbatan tez sur‘atlar bilan oshirish hisobiga erishiladi.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirishi bosqichida va islohotlarning chuqurlashuvi sharoitida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish yangicha amaliy va samarali shakllarni qo‘llashni talab etdi. Jahon tajribasining ko‘rsatshicha, davlatning maqsadli jamg‘armalari tizimi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va undan samarali foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Jamiyatning har bir a'zosining ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan bozor iqtisodiyotini rivojlantirish davlat moliya, byudjet siyosatining o'zagini tashkil etadi. Chunki har bir insonning yoki biror ijtimoiy guruhning, qolaversa, millatning ijtimoiy manfaatlari doimo uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi jamiyat tizimining munosabatlarida va Davlat byudjeti xarajatlarida namoyon bo'ladi.

Pensiya ta'minoti tizimini doimiy isloh qilishning asosiy sababi, Davlatning fuqarolarni pensiya ta'minotiga oid majburiyatlarini bajarishi uchun moliyaviy resurslarning etarli darajada etishmasligi. Hozirgi kunda pensiya tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. Respublikamizda pensiya tizimi borasidagi muammolar va isloh etishning ob'ektiv zaruriyati Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining taraqqiy etishi jahon tajribasini chuqur tahlil etishni, mamlakatda demografik vaziyatning o'zgarib borishi esa mavjud pensiya ta'minotining yangi zamonaviy bozor modelini yaratishni va uni amaliyotga tatdbiq etishni shart qilib qo'yimoqda.

Nodavlat jamg'arish sxemasiga e'tiborning kuchayishi va uni pensiya sug'urtasining kompleks tizimida qo'llash barcha rivojlangan mamlakatlar uchun xos xususiyat hisoblanadi. Dastlab jamg'arish tizimining shakllanishi tasodifiy ko'rinishda, tizimsiz amalga oshirilgan. Pensiya dasturlarini ishlab chiqishda etakchilar asosan firma doirasida fikr yuritishib, hukumatga tartibga soluvchilik rolini qoldirishgan. Bugungi kunda davlat tomonidan tartibga solinadigan va ish beruvchilar hamda xususiy shaxslar tomonidan moliyalashtiriladigan jamg'arish pensiya tizimi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bunday tizimlar pensionerlar daromadini qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi va korxonalariga inson resurslarini boshqarishning samarali dasturini yaratish imkonini beradi. Nodavlat pensiya rejalariga e'tiborning ortib borishiga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda pensiya islohatlarini amalga oshirishdagi ustuvor yo'nalish taqsimlash sxemasini yangi sharoitlarga moslashtirish bo'lib qolmoqda. Bu borada Germaniya, Fransiya, Italiya, Shvetsiya, Buyukbritaniya, AQShda muayyan qadamlar qo'yildi. Bu sohadagi moslashtiruvchi choratadbirlar qo'yidagilardan iborat bo'ldi: Pensiyaga chiqishning yosh chegarasini oshirish va zaruriy mehnat staji davomiyligini uzaytirish;

- Pensiyalarni indeksasiyalash tartibini o'zgartirish va iste'mol narxlarining o'sish suratiga asosan indeksasiya qilish;
- qoplash koeffisientini pasaytirish;
- majburiy kasbiy jamg'arish sxemasini kiritish va davlat taqsimlash tizimini muhtojlikni tekshirib ko'rishga asoslangan pensiya ta'minotiga aylantirish.

Davlat taqsimlash tizimida u yoki bu choralar tartibini tanlashni esa mamlakat pensiya tizimida vujudga kelgan holat, demografik vaziyat tavsifi, jamiyatda amal qilayotgan adolatlilik to'g'risidagi tushunchalar, siyosiy qarashlar belgilab beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Тошкент. Ўзбекистон". 2008. -40б.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Бюджет тизими тўғрисида"ги

Қонуни. 2000 йил. 14 декабр.

3. Хамрақулов, И. Б. (2021). Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг назарий асослари. *Scientific progress*, 2(7), 586-592.

4. Хамрақулов, И. Б. (2022). Кичик саноат зоналарини ривожлантиришнинг моҳияти ва ўзига хос хусусиятлари. *Scientific progress*, 3(1), 328-334.

5. Хамрақулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. *ма*, 2, 49.

6. Хамрақулов, И. Б. (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИЯТЛАРИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 140-146.

7. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Абдусатторова, З. (2020). Проблемы развития социального обеспечения населения. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 42-43).

8. Хонкелдиева, К., & Муйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 18-19).

9. Хонкелдиева, К., & Муйдинжонова, М. (2020). Необходимые условия обеспечения гендерного равенства. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 40-41).

10. Хонкелдиева, К., & Хўжамбердиев, Ж. (2020). Проблемы развития организации: управленческий и логистический аспекты. In *Наука сегодня: история и современность* (pp. 17-19).

11. Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. *The American Journal of Management and Economics. Innovations*, 3, 01-36.

12. Хайдаров, Х., Нурматова, И., & Хонкелдиева, К. (2021). Факторы формирования сильного конкурентного рынка в текстильной промышленности. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ* (pp. 59-61).

13. Хамрақулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. *ма*, 2, 49.

14. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Хасанхужаева, У. (2021). Предупреждение преступности среди несовершеннолетних. *Наука сегодня: факты, тенденции, прогнозы [Текст]: матем.*, 34.

15. Xonkeldiyeva, K., & Xo'jamberdiyev, J. (2020). Экономика и социум.

16. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Nomonjonova, F. U., Qodirova, S. Q., & Arabxonova, X. A. (2021). Classification Of Competition In The Market Of Light Industrial Goods And The Factors That Shape It. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3, 01-43.

17. Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 780-783.

18. Asqarova, A. M., Xonkeldiyeva, K. R., Abdukarimova, R. A., Xudoyberdiyeva, X. B., & Egamberdiyeva, N. B. (2021). Theories Of Marketing Strategies To Increase The Competitiveness Of Light Industry Enterprises. *The American Journal of Management and Economics Innovations*, 3(01), 40-42.

19. Asqarova, A., Xonkeldiyeva, K., Abdumutalibova, X., & Murotova, D. (2021). Issues of increasing the competitiveness of light industry enterprises. *Наука сегодня: проблемы и пути решения [Текст]: материя*, 48.

20. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research*, 3(01), 113-117.

21. Хамракулов, И. Б. (2021). Кичик саноат зоналарини барпо этиш ва ривожлантиришнинг назарий асослари. *Scientific progress*, 2(7), 586-592.

22. Хонкелдиева, К., & Толибжонова, М. (2020). Механизм формирования инновационного процесса в текстильном производстве как основа адаптации к процессам глобализации. In *Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования* (pp. 15-16).